

KOMMUNIKATIV MULOQOT VA UNING XUSUSIYATLARI

Toshnazarova Uzukoy Azizberdi qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Anotatsiya: Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zlashtirish va o'z individual ehtiyojlarni qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatga ega bo'ladi.

Kalit so'zlar: muloqot turlari, vebral kommunikatsiya va noverbal kommunikatsiya, monolog, dialog, til, mimika va pantomimika.

Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkur olami va obrazni tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muammoga atroficha baho bergan polshalik psixolog Melubroda quyidagilarni ta'kidlaydi. Muloqot psixologiyasi shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir. Muloqot psixologiyasi o'ta murakkab bo'lganligi sababali unga yagona to'g'ri ta'rifni berishi juda muhim.

Muloqot – Kamida ikki kishining o'zaro ta'sir ja'rayoni bo'lib bu ta'sir davomida axborot almashinadi, munosabat o'rnatiladi va rivojlantiriladi.

Muloqot tushunchasini kommunikatsiya tushunchasidan farqlash lozim.

Kommunikatsiya tirk va o'lik tabiatning tizimlar o'rtasidagi axborot almashinuvini anglatadi. Muloqot inson hayotida qanchalik ahamiyatga ega ekanligini quyidagi misollarda yaqqol ko'rish mumkin.

Bir paytlar Amerikada barcha tamadixonalarni avtomatlashtirish avj oldi. Ammo ko'p o'tmay ularning egalari kasodga uchray boshlaydi. Ma'lum bo'lishicha bu yerga odamlar nafaqat tamaddi qilishga balki suhbotdosh topish uchun ham kelganlar. Bundan seziladki insonlar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar va uni qondirishga harakat qilishadi.

Faoliyat davomida odamlar turli fikrlar o'y-xayollari va his kechinmalar bilan o'rtoqlashadilar. Bunday o'y fikrni kechinmalarni axborot almashinushi sifatida talqin etish mumkin. Ammo shuni e'tiborga olish kerakki insonlararo kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuvidan iborat emas chunki muloqot jarayonida axborot nafaqat uzatiladi, aniqlashtiriladi va rivojlantiriladi.

Demak insonlar muloqotni shuki axborot almashinuvidan iborat jarayon deb hisoblash mumkin emas. Birinchidan muloqot psixologiyasi jarayonida axborot bir tomonidan ikkinchi tomonga shunchaki harakatlanmaydi balki faol almashinadi. Kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-biriga axborot yuborayotganda bir-birining motivlari maqsadlar ustanoklari va boshqalarni tahlil qiladilar. Ikkinchidan, muloqot jarayonda axborot almasha turib kishlar belgilari orqali bir-biriga ta'sir etish mumkin. Insonlararo axborot almashinuvida albatta suhbotdosh xulq-atvorga muayyan ta'sir o'tkazadi. Uchunchidan, muloqot jarayonida kommunikator axborot yuboradigan odam va respondent axborot qabul qilayotgan odam bir xil kodlashtirish tizimga ega bo'lishi kerak.

To‘rtinchidan muloqot jarayonida faqat insonlararo kommunikatsiyaga xos tosiqlar vujudga kelishi mumkin.

Kommunikativ jarayonda qo‘llaniladigan bir necha belgilar tizimi mavjud ular verbal va noverbal kommunikatsiyadir.

Kommunikativ jarayonda o‘zaro munosabatga kirishuvchilarni bir birlarni tushunishlari juda muhimdir. Bunda nutqning quyidagi xususiyatlari paydo bo‘ladi., ya’ni mazmundorligi, tushunarlislik, ifodalilik, ta’sirchanlik ko‘rsatiladi.

Buyuk yozuvchi “ Muloqot- shunday ne’matki, u orqali inson lazzatlanadi” deb yozgan edi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak muloqot insonlarga suv va havodek zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Karimova V.M. “ Psixologiya ” Toshkent Sharq 2002-y.
2. Gaziyev E.G. “ Umumiyl psixologiya ” 1-2 tom Toshkent 2002-y.
3. Ivon P.I Zulfarova M. “ umumiyl psixologiya” Toshkent O‘zbekiston faylasuf milliy jamiyat 2008-y.